

ONLAYN SAVDO PLATFORMALARDAGI ZAIFLIKARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH.

Umirzoqov Azizbek Zafar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada onlayn savdo platformalari tushunchasi, ularning turlari, ularda uchraydigan zaifliklar, ularning ahamiyati, zaifliklar orqali oshkor etilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar, ular orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklar, zaifliklarni aniqlashda qo'llaniladigan vositalar hamda ular orqali aniqlangan zaifliklar, ularni tahlil qilishga oid bo'lgan chora-tadbirlar o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Onlayn savdo, Onlayn savdo amalga oshiriladigan platformalar, ularda uchraydigan zaifliklar, platformalarning ma'lumotlar bazalari, onlayn savdo platformalaridagi huquqbuzarliklar.*

Onlayn savdo - bu internet orqali savdogar va xaridor o'rtasida mahsulot yoki xizmatlarni sotish va sotib olish jarayonidir. Ya'ni odamlar o'ziga tegishli qurilmalar, telefonlar, planshetlar yoki kompyuterlari orqali turli xil savdo platformalarida o'zlari uchun zarur tovarlarni onlayn tarzda ko'rib, tanlab, mahsulotlarga o'zlarining munosabatlarini bildirib, buyurtma qilishlari hamda tanlagan mahsulotlarini o'zlari istagan joyga savdo platformasining yetkazib berish xizmatlari yoki yaqin hududdagi pochta xizmatlari orqali qabul qilib olishlari mumkin. Ushbu jarayonni odamlari uylaridan chiqmagan holda bimalol amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Bu uchun esa talab etiladigan kichik omil ularda savdo platformalariga kirish imkoniga ega qurilma va internet bo'lsa bas. Onlayn marketlarda amalga oshiriladigan savdo do'konlarga, savdo rastalariga va bozorlarga borishga hojat qoldirmaydi va bu bilan odamlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini tejab qolishadi. Onlayn savdo asosan internet do'konlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki maxsus ilovalar orqali amalga oshiriladi. Xaridorlar uchun ham bu juda qulay. Ular uyda o'tirib turib, kerakli mahsulotni qidirib topishadi, narxini solishtirishadi, va qulay to'lov usulini tanlab, buyurtma berishadi. Asosan mahsulot eshikgacha yetkazib beriladi. To'lov esa kartadan, mobil ilovalar orqali yoki naqd pul bilan amalga oshiriladi. Har bir muhitni yoki sharoit qulay tomonlari bilan birga ularning noqulayliklari ham bo'lishi bub or gap. Shu bilan birga, onlayn savdoning ayrim noqulay tomonlari ham bor. Mahsulotni qo'l bilan ushlab ko'rib ularni solishtirib bo'lmaydi, faqat mahsulotlarni ko'rish suratlarda kichadi va tanlanadi. Ba'zi holatlarda sifat past bo'lishi yoki firibgarlik holatlari uchrashi mumkin. Shuning uchun ishonchli do'kon yoki sotuvchini tanlash muhim.

Onlayn savdo platformalari - bu internet orqali mahsulot va xizmatlarni sotish va xarid qilish uchun mo'ljallangan maxsus saytlar yoki ilovalardir. Bu platformalar xaridor va sotuvchilarni bir virtual muhitda birlashtiradi. Sotuvchilar o'z mahsulotlarini yoki xizmatlarni platformalarga joylashtirib ularni ta'riflash orqali xaridorlarga ularni taqdim etishadi, xaridorlar esa mahsulotalarni yoki xizmatlarni ko'rib, tanlab va buyurtma berishlari mumkin

bo'lad. Bu jarayonlar to'liq raqamli shaklda amalga oshiriladi. Bunday platformalar orqali savdo qilish juda qulay, chunki ular foydalanuvchilar uchun soddalashtirilgan interfeysga ega bo'lad. Onlayn savdo platformalari odatda doimiy mijozlar bazasiga ega bo'lib, reklama va targ'ibot ishlarini ham o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, hozirgi kunda faoliyat olib boruvchi ko'plab platformalarda mijozlar xarid qilgan mahsulotlari haqida fikr va mulohazalarini qoldirib, ularga baho baho berishlari mumkin, bu esa boshqa xaridorlarga mahsulotning sifati haqida ma'lumotga ega bo'lib, tanlov qilishda ko'mak beradi. Bunday platformalar kun sayin rivojlanmoqda va ularning soni ortib bormoqda. Ular turli sohalardagi mahsulotlarni, masalan, kiyim-kechak, elektronika, oziq-ovqat, maishiy texnika va boshqalarni, shuningdek xizmarlarni ham taklif qilishadi. Shu sababli onlayn savdo platformalari bugungi kunda an'anaviy savdoga kuchli raqobatchi bo'lib qolmoqda. Onlayn savdo platformalar rivojlanar ekan, ularda foydalanuvchilarning ma'lumotlar sizib chiqishi bilan bog'liq ayrim zaifliklar uchrab turadi va bu omillar xaridor hamda sotuvchilar uchun muammo tug'dirishi mumkin.

Onlayn savdo platformalaridagi zaifliklar kiberjinoyatchilar tomonidan turli o'g'riliklar va hujumlar uchun ishlatiladi. Bunday zaifliklardan foydalanib amalga oshiriladigan hujumlar mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlariga ruxsatsiz kirishni o'z ichiga olishi mumkin. Eng keng tarqalgan o'g'rilik turlari va ularni amalga oshirish usullari ko'rsatilgan:

1) SQL Injection hujumlari: Bu hujumlar saytning ma'lumotlar bazasidagi zaifliklardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Kiberjinoyatchilar maxsus tuzilgan SQL so'rovlarini veb-saytning formalari yoki URL manzillariga joylashtirib, saytdan foydalanuvchilarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini o'g'irlashlari mumkin. Ushbu hujumlar orqali kredit karta ma'lumotlari, savdo platformasiga kirish uchun login va parol ma'lumotlari va boshqa muhim ahamiyatga ega ma'lumotlar o'g'irlanishi mumkin.

2) Cross-Site Scripting (XSS): Bu turdagi hujumlarda xakkerlar saytga tayyor yoki o'zlari tomonidan maxsus yozilgan zararli skriptlarni joylashtirish orqali foydalanuvchilarning ma'lumotlarini o'g'irlashadi. XSS orqali foydalanuvchining shaxsiy cookie ma'lumotlari, kirish seanslari o'g'irlanishi yoki platformada uning shaxsiy kabenitida zararli dasturlar ishlatilishi mumkin. Onlayn savdo platformalaridagi bu zaifliklar mijozlarni va ularning xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni xavf ostiga qo'yadi.

3) Phishing (Fishing): Phishing xurujlari orqali jinoyatchilar mijozlarga soxta elektron pochta yoki veb-sahifalar yuborib, ularning login ma'lumotlarini, kredit karta ma'lumotlarini yoki boshqa ma'lumotlarini qo'lga kiritishga harakat qilishadi. Onlayn savdo platformalarining zaif yoki juda soda usulda himoyalangan autentifikatsiya jarayonlari ushbu usul bilan osonlikcha buzilishi mumkin.

4) MITM hujumlari: MITM hujumlari orqali xakkerlar foydalanuvchi va sayt o'rtasida uzatilayotgan ma'lumotlarni ushlab qolib, ularni o'g'irlashlari mumkin. Ular o'rtasidagi aloqani yashirincha tinglash yoki o'zgartirishga urinadi. Agar sayt orqali ma'lumotlar almashinish jarayonlari shifrlanmagan bo'lsa yoki shifrlash SSL sertifikatlarini orqali himoyalangan bo'lsa, ushbu hujum orqali yuqorida sanab o'tilgan foydalanuvchilarga tegishli ma'lumotlar o'g'irlanishi mumkin.

5) To'lov tizimlariga hujumlar: Onlayn savdo platformalarida noto'g'ri yoki zaif to'lov tizimlari orqali xakkerlar kredit karta ma'lumotlarini yoki to'lov ma'lumotlarini o'g'irlashi mumkin. Bunga zaif shifrlash yoki autentifikatsiyaning yo'qligi sabab bo'lishi mumkin. Bu holda, kiberjinoatchilar foydalanuvchilarning hisobidan pul o'g'irlashi yoki soxta to'lovlar amalga oshirishi mumkin.

6) Fake Accounts va Refund Fraud: Kiberjinoatchilar soxta foydalanuvchi hisoblarini yaratib, onlayn do'konlardan mahsulotlar sotib olishadi, keyin esa soxta shikoyat yoki qaytarish talablarini yuborib, to'lovlarni qaytarib olishadi. Ko'pincha bu usul platformalarning autentifikatsiya yoki verifikatsiya jarayonlari yetarlicha kuchli bo'lmaganda amalga oshiriladi.

7) CSRF: Bu zaiflik xakerlarga foydalanuvchining seansi orqali zararli harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu zaiflik orqali xakerlar foydalanuvchini o'z xohishidan tashqarida harakat qilishga majburlaydi. Masalan, agar foydalanuvchi o'z hisobiga kirgan bo'lsa, CSRF hujumi orqali uning nomidan pul o'tkazish, profil ma'lumotlarini o'zgartirish yoki boshqa xavfli amallarni bajarish mumkin. Kirishda foydalanuvchi autentifikatsiyadan o'tadi va sessiya yaratadi. Sessiya bilan bog'liq identifikator, ya'ni "cookie" orqali foydalanuvchi harakatlari tekshiriladi. Xaker tomonidan yashirin so'rov yuborish orqali foydalanuvchini zararli veb-sahifaga tashrif buyurishga majbur qiladi.

Onlayn savdo platformalarida uchraydigan zaifliklarning ahamiyati juda katta bo'lib, bu holat platformaning ishonchliligi, foydalanuvchi tajribasi va tizim xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar zaifliklar vaqtida aniqlanmasa yoki bartaraf etilmasa, u holda foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavf ostida qoladi. Bu esa platformaga nisbatan ishonchning pasayishiga olib keladi. Foydalanuvchi o'z ma'lumotlari xavfsiz emasligini sezsa, undan foydalanishni to'xtatishi yoki raqobatchi xizmatlarga o'tishi mumkin. Bunday zaifliklar natijasida noto'g'ri mahsulot ma'lumotlari, narxlar va mavjudlik holatlari ko'rsatilishi ehtimoli oshadi. Bu esa xaridorni adashtiradi va noto'g'ri buyurtmalarga olib keladi. Bundan tashqari, zaifliklar orqali firibgarlik qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa nafaqat xaridorlarga, balki sotuvchilarga ham zarar yetkazadi. Natijada, platformaning umumiy xavfsizlik darajasi past bo'lib qoladi va bu yirik biznes hamkorliklari uchun salbiy omil hisoblanadi. Shu sababli onlayn savdo platformalaridagi zaifliklarning ahamiyatini to'g'ri baholash juda muhim. Ularni erta aniqlab, ishonchli tizimlar bilan mustahkamlash foydalanuvchilar sonining ortishi, xizmat sifati va daromadning oshishi kabi ijobiy natijalarga olib keladi.

FOYDALANILAYOTGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.:2024
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.

3. Радий Владимирович Шишкин. “Потребительский рынок как объект посягательства цифровых преступлений”// Проблемы борьбы с преступностью.
4. D.X.Suyunov, A.T.Kenjabayev A.O. Ro‘ziyev. “ELEKTRON TIJORAT” darslik. T-2023.
5. D.M. Rasulev, S.K. Varoyev “ELEKTRON TIJORAT” o‘quv qo‘llanma. T-2010.
6. Акила К. Интернет-магазин с нуля. Полное пошаговое. — Санкт-Петербург: Питер, 2013. — 176 с.
7. Eshqulova Nasiba Normo‘minovna “O‘zbekistonda raqamli savdo tizimining rivojlanish tahlili” maqolasi.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Savdo>
9. <https://kknews.uz/oz/111882.html> Gulnoza Sharafovaning “Chuv tushib qolishimizga sabab bo‘layotgan omillar, onlayn savdo – iste‘molchilarning og‘riqli nuqtasi...” axboroti.
10. <https://shaah.uz/online-savdo-haqida/> – Online savdo haqida.